



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

2022- yil  
yanvar-mart



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DOIMIY AHOLISI

2022- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma’lumotlar

O‘zbekiston Respublikasida 2022- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **35 433,8** ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **738,3** ming kishiga yoki **2,1 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **18 022,1** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **50,9 %**), qishloq aholisi soni **17 411,7** ming kishi (**49,1 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**35 433,8** ming kishi

### Tabiiy o‘shish

**+163,3** ming kishi

### Doimiy aholining taqsimlanishi

#### Shahar




**50,9 %**

#### Qishloq



**49,1 %**

### Aholining tabiiy harakati, ming kishi



## O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar

2022- yil yanvar-mart



**203,7** *ming kishi*  
Tug‘ilganlar soni



**40,4** *ming kishi*  
O‘lganlar soni



**57,9** *ming kishi*  
Nikohlar soni



**12,2** *ming kishi*  
Ajralishlar soni



**52,8** *ming kishi*  
Ko‘chib kelganlar soni

shundan xorijdan  
**0,4** *ming kishi*



**53,6** *ming kishi*  
Ko‘chib ketganlar soni

shundan xorijdan  
**1,2** *ming kishi*

## Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni

2022- yil 1- aprel holatiga



Mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar - **31,5 %**



Mehnatga layoqatli yoshdagilar - **57,4 %**




Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar - **11,1 %**

2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **31,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,4 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2022- yil 1- aprel holatiga




## Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1- aprel holatiga, ming kishi

	2021- yil	2022- yil	O‘sish sur‘ati, % da
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>34 695,5</b>	<b>35 433,8</b>	<b>102,1</b>
<i>hududlar:</i>			
Samarqand	3 962,6	4 049,9	102,2
Farg‘ona	3 834,1	3 913,4	102,1
Qashqadaryo	3 348,6	3 423,2	102,2
Andijon	3 200,5	3 268,5	102,1
Toshkent*	2 986,0	2 954,4	98,9
Namangan	2 878,7	2 945,0	102,3
Toshkent shahri*	2 715,8	2 879,8	106,0
Surxondaryo	2 693,0	2 757,6	102,4
Buxoro	1 951,9	1 983,3	101,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 927,6	1 955,7	101,5
Xorazm	1 898,8	1 930,8	101,7
Jizzax	1 416,7	1 450,5	102,4
Navoiy	1 017,1	1 038,6	102,1
Sirdaryo	864,1	883,1	102,2

\*Toshkent shahri hududi Toshkent viloyati hududi hisobidan kengayishi natijasida aholi sonida sezilarli o‘zgarish bo‘lgan

**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi**
*2022- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi*


O‘zbekiston Respublikasida 2022- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **78,9** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,6** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga 77,3 kishi).



Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida **6428,2** kishi, Andijon viloyatida **760,1** kishi, Farg‘ona viloyatida **578,9** kishi, Namangan viloyatida **395,8** kishi, Samarqand viloyatida **241,5** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati **9,3** kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **11,7** kishi, Buxoro viloyatida **49,3** kishi, Jizzax viloyatida **68,4** kishi, Qashqadaryo viloyatida **119,8** kishini tashkil etgan.



### QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR


Soni, ming kishi

O‘sish sur‘ati, % da




#### Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-mart, kishi




#### Tug‘ilganlarning taqsimlanishi


Yanvar



Fevral



Mart



2022- yil yanvar-mart oylarida **203,7** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **23,4** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2021- yilga nisbatan **2,4** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda **21,0** promilleni tashkil etgan).

### Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-mart




2022- yilning yanvar - mart oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha quyidagi ulushga ega bo‘ldi:

- 1 nafar **97,8 %**,
- 2 nafar **2,1 %**,
- 3 va undan ortiq **0,1%**

### Chaqaloqlarning ota-onasi yoshi bo‘yicha taqsimlanishi

#### Otaning yoshi

#### Onaning yoshi





2022- yil yanvar-mart oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **9,8 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **84,2 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **6,0 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **37,3 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **61,7 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,0 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.





**VAFOT ETGANLAR**

Soni, ming kishi

O‘shish sur‘ati, % da



**Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti**

2022- yil yanvar-mart, kishi



**Vafot etganlarning taqsimlanishi**
**Yanvar**

**Fevral**

**Mart**


2022- yilning yanvar-mart oylarida **40,4** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan - **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-mart oylarida **4,7** promille bo‘lgan).



**O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi**
*2022- yil yanvar-mart, kishi*


2022- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **61,5 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **6,7 %** i – o‘simtalardan, **9,2 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **4,4 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,6 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,5 %** i – yuqumli va parazitari kasalliklardan, **13,1 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


**O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi**
*2022- yil yanvar-mart*


2022- yil yanvar-mart oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **14,1 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **24,7 %** ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **61,2 %** ni tashkil etgan.

## QAYD ETILGAN NIKOHLAR


Soni, ming birlik

O‘shish sur‘ati, % da



## Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-mart, birlik



## Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar

Shahar

8 744



42,8 %

Qishloq

11 687



57,2 %

Fevral

Shahar

8 172



45,8 %

Qishloq

9 652



54,2 %

Mart

Shahar

9 166



46,7 %

Qishloq

10 452





53,3 %

2022- yilning yanvar-mart oylarida **57,9** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,6** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-0,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-mart oylarida **7,0** promille bo‘lgan).

### NIKOHDAN AJRALISHLAR


Soni, ming birlik

O‘shish sur‘ati, % da




#### Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-mart, birlik




#### Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi


Yanvar



Fevral



Mart



2022- yil yanvar-mart oylarida **12,2** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-mart oylarida **1,1** promille bo‘lgan).

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-mart

44,8 %



Farzandsiz ajrashganlar

2022- yil yanvar-mart oylarida farzandsiz nikohdan ajrashganlar 5 447 ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar-mart oylarida 1 nafar farzand bilan nikohdan ajrashganlar 3 623 ni tashkil etgan.

29,8 %



1 nafar farzand bilan ajrashganlar


25,4 %



2 va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar

2022- yil yanvar-mart oylarida 2 va undan ortiq farzand bilan nikohdan ajrashganlar 3 094 ni tashkil etgan.

## Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi

Erkaklar  
39,9  
yoshAyollar  
33,5  
yosh

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2022- yilning yanvar-mart oylarida erkaklar uchun 39,9 yoshni, ayollar uchun 33,5 yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshlilarga to‘g‘ri kelgan, y’ani jami nikohdan ajrashganlarning 50,5 % ini tashkil etgan.

**AHOLI MIGRATSIYASI**
*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*

2022- yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **52 825** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **52 435** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **390** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **53 608** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **52 435** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **1 173** kishini tashkil etib, migratsiya saldosini minus **783** kishini tashkil etdi.


**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni**
*2022- yil yanvar-mart, kishi*

	Ko'chib kelganlar			Ko'chib ketganlar		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		respublika-ning boshqa hududlaridan	xorijiy mamlakatlardan		respublika-ning boshqa hududlariga	xorijiy mamlakatlarga
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>52 825</b>	<b>52 435</b>	<b>390</b>	<b>53 608</b>	<b>52 435</b>	<b>1 173</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 439	2 405	34	2 594	2 502	92
viloyatlar:						
Andijon	1 700	1 698	2	1 961	1 918	43
Buxoro	1 510	1 502	8	2 163	2 140	23
Jizzax	1 912	1 909	3	2 297	2 231	66
Qashqadaryo	2 630	2 623	7	4 019	3 999	20
Navoiy	2 345	2 332	13	2 382	2 317	65
Namangan	645	639	6	1 248	1 131	117
Samarqand	2 444	2 438	6	3 611	3 470	141
Surxondaryo	2 633	2 631	2	3 451	3 382	69
Sirdaryo	1 790	1 784	6	1 940	1 896	44
Toshkent	6 922	6 817	105	6 209	5 965	244
Farg'ona	2 411	2 396	15	3 015	2 911	104
Xorazm	1 918	1 916	2	2 105	2 095	10
Toshkent sh.	21 526	21 345	181	16 613	16 478	135




### JAMI KO‘CHIB KELGANLAR

Soni, ming kishi




O‘shish sur‘ati, % da




#### Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-mart, kishi




#### Ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi


##### Yanvar



##### Fevral



##### Mart





2022- yilning yanvar-mart oylarida **52,8** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **6,1** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **3,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-mart oylarida **9,5** promille bo‘lgan).

### JAMI KO‘CHIB KETGANLAR


Soni, ming kishi

O‘shish sur‘ati, % da



#### Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-mart, kishi



#### Ko‘chib ketganlarning taqsimlanishi

Yanvar

Erkaklar 7 637 Ayollar 11 467



40,0 % 60,0 %

Fevral

Erkaklar 7 455 Ayollar 11 069



40,2 % 59,8 %

Mart

Erkaklar 6 488 Ayollar 9 492




40,6 % 59,4 %

2022- yilning yanvar-mart oylarida 53,6 mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan 3,7 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-mart oylarida 9,9 promille bo‘lgan).


### TASHQI MIGRATSIYA

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)



### Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2022- yil yanvar-mart



O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan **37,9 %**), Rossiya Federatsiyasi (**22,1 %**), Tojikiston Respublikasi (**12,6 %**), Qirg‘iz Respublikasi (**5,6 %**), Turkmaniston Respublikasi (**2,3 %**) va boshqa mamlakatlar (**19,5 %**) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-mart



O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan **58,5 %**), Rossiya Federatsiyasi (**29,5 %**), Tojikiston Respublikasi (**1,6 %**), Qirg‘iz Respublikasi (**0,9 %**), Turkmaniston Respublikasi (**0,7 %**) va boshqa mamlakatlar (**8,8 %**) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi**

*Tel: 71 202-80-65, 66*